



DALVARZINTEPA SHAHAR YODGORLIGI TARIXIDAN

Kubayev Ravshan Sirojiddin o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kushon podsholigining ko'hna shahar yodgorliklaridan biri sanaluvchi Dalvarzintepa va uning o'rganilish tarixi, o'ziga xususiyatlari haqida so'z boradi. Dalvarzintepa antik davr O'zbek shaharsozligi tarixida muhim o'rin egallagan bo'lib, maqolada yodgorlikning me'moriy qurilish xususiyatlari, uning ahamiyatli jihatlari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Dalvarzintepa, Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumani, Kushon podsholigi, Buyuk Ipak yo'li, Kyudzo Kato, 115 oltin buyum, budda haykallari, antik davr madaniyati, O'zbek-Yapon qo'shma ekspeditsiyasi.

Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligi 50 yildan buyon arxeologlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Bu tadqiqotlar va o'rganishlar davomida topilgan ashyolar tariximiz naqadar boy ekanidan dalolat beradi. Tarixiy eksponatlar orasida ham moddiy, ham madaniy jihatdan qimmatlisi Dalvarzintepa xazinasidir.

Ushbu obyektни batafsil o'rganish 1967-yilda tarixchilar G. Pugachenkova va M.Y. Masson tomonidan boshlangan. Qadimgi shaharning shimoliy qismida Baqtriya ma'budasi ibodatxonasi va noyob rasmlar topilgan. Mazkur hududda miloddan avvalgi I asrning boshlarida barpo etilgan budda ibodatxonasining xarobalari topilgan, bu O'zbekistondagi eng qadimgi buddaviylik binosi hisoblanadi. Kushon imperiyasi davrida bu yerda shaharlar, tumanlar va turar-joylar gullab-yashnagan[4].

Kushon podsholigi – O'rta Osiyo va shimoliy Hindiston hududlarini o'zida jamlagan milodiy I-IV asrlarda faoliyat ko'rsatgan qadimiy davlatlardan biridir.



Milodiy I-asrning birinchi yarmi yohud o'rtalarida yuechjilar tasarrufidagi Kushon mulkining yuksalishi natijasida vujudga kelgan o'z davrining qudratli davlatlaridan hisoblanadi.

Kushon podsholigiga oid ko'plab O'zbekiston hududida yodgorliklar qayd etilgan bo'lib, ular orasida bu davrga oid yirik ko'hna shaharlaridan biri Dalvarzintepadir. Ko'hna shahar umumiy maydoni 36 gektardan ziyod bo'lgan bu shahar uzunligi 2,5 km qalinligi 10 metr bo'lgan himoya devori va chuqur xandaq bilan orab olingan[3].

1971-yilda Dalvarzintepa yodgorligi qazuv tadqiqotlari natijasida uy-joy qoldiqlari, kulollar yashaydigan xonalar ochildi. 1972-yilda Dalvarzintepadan 115 ta oltin buyumlardan tashkil topgan xazina topilgan bo'lib, u milodiy II-III asrlarga oid ekanligi aniqlandi. Bu davrga oid mazkur xazina sirg'a, bilakuzuk, kamarband uzuk, oltin shodalaridan tashqari bu yerdan sopol idishlar, haykalchalar, taqinchoqlar, tangalar va shaxmat donalari ham topilgan[1].

Devorlarda harbiy maqsadlarni ko'zlab maxsus minoralar qurilgan. Shaharning markaziy qismida boy shaharliklarning mahallalari, janubiy qismida esa hunarmandlar yashaydigan kulolchilik mahallasi joylashgan. Bu yerda topilgan ko'p sonli topilmalarni nafaqat mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan balki Yaqin O'rta Sharqdagi turli viloyatlardan keltirilgan buyumlardan ham iboratligini ko'rishimiz mumkin.

Dalvarzintepada shahar oldi qismida milodning birinchi asrda bunyod etilgan budda ibodatxonasi qoldiqlari ochilib, unda diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan ko'p sonli topilmalar topilgan. Ko'hna shaharning markazidan milodiy II-III asrga oid yana bir ibodatxona qoldiqlari ochilgan bo'lib, ushbu ibodatxonadan loy hamda gipsdan ishlangan Buddha Badxisatvlarning yirik haykallari, hukmdor va unga yaqin kishilarning haykalchalari topilgan.

Ko'hna shahardan 11 ta xumdon ochilgan bo'lib ular bu hududda sopol hunarmandchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi. Uzoq yillik arxeologik



tadqiqotlar aytish mumkinki, Kushon davlatining birinchi poytaxt shahri Dalvarzintepa xarobalari o'rnida joylashgan.

Dalvarzintepa Kushonlar davlatining janubiy qismlarida joylashgan yirik siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri edi. Bu yerda xalqaro savdo yo'llari tutashgan bo'lib, shahar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan edi. Savdo aloqalari tufayli Dalvarzintepa o'z davrida rivojlangan shahar hayotini aks ettirgan. Shuningdek, bu yerda hind va grek madaniyatlarining aralashuvi yaqqol seziladi, bu esa Kushonlar imperiyasi xalqaro aloqalarga ochiq bo'lganligini ko'rsatadi. Dalvarzintepadan topilgan madaniy obidalar va san'at asarlari Kushonlarning madaniy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arablar istilosidan so'ng shahar batamom vayron qilinib, hayot Dalvarzintepadan 10 km. chamasi sharqqa, Budrochtepa o'rniga ko'chgan[2].

1989-yil Dalvorzintepani o'rganishda yangi bosqich bo'ldi. O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi bilan Yaponiyaning Tokiodagi Soka universiteti va Kashiharadagi Arxeologiya institutining prof. Kyudzo Kato rahbarligidagi ekspeditsiyasi hamkorlikda ish olib bordi. Markaziy Osiyo buddaviylik tarixini o'rganish, buddaviylik personajlari ikonografiyasi, shaqarsozlik jarayonining o'ziga xos jihatlari va qonuniyatlari, davlatchilikning shakllanishi, Buyuk ipak yo'li izlari, Kushonlar davridagi diniy e'tiqodlarning o'zaro ta'siri va ular Baqtriya-Tohariston san'atida aks ettirilishi yapon va o'zbek olimlari oldidagi eng dolzarb ilmiy muammolar qatorida turadi[4].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Dalvarzintepa qadimiy Kushon davlati poytaxt shaharlaridan bo'lib, milodiy I–IV asrlarda yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida Buyuk Ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bu shahar xalqaro savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shahar infratuzilmasi himoya devorlari, ibodatxonalar, kulolchilik ustaxonalari, buddaviylikka oid san'at asarlari va boshqa topilmalar bilan boyitilgan. Dalvarzintepa madaniyatida hind va grek madaniyatlarining



o'zaro ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa Kushonlar davrining xalqaro integratsiyasini ko'rsatadi. Topilgan buddaviylik yodgorliklari va madaniy obidalar nafaqat diniy, balki san'at va davlat boshqaruvi tarixini o'rganishda ham katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jurayeva S.N., Usmonov I.S., Qurbonov A.M., Azimova L.K. Surxondaryo tarix sahnasida. Toshkent. 2022. 182-b.
2. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В., Далверзинтепе — Кушанский город на юге Узбекистана. Tashkent. 1978. с.21-35.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000. 92-93-b.
4. www.wikipedia.org internet sayti